Xolbutayev G‘ayratbek Oybek o‘g‘li (Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti, filologiya fandari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); gayratbek19912705@gmail.com; ORCID ID: 0000-0001-5925-8071)

KOMIK FOLKLOR JANRLARI O‘RGANILISHINING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada komik folklor janrlari, xususan, askiya va latifalarning o‘rganilish tarixi hamda ularning nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda jahon va o‘zbek folklorshunosligida kulgi fenomeniga berilgan ta’riflar, V.Y.Propp, M.M.Baxtin kabi olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek, askiya janrining o‘ziga xos tabiati va uning xalq estetik ehtiyojlarini qondirishdagi o‘rni yoritilgan. Maqola yakunida komik janrlarning genezisi va taraqqiyot bosqichlari bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *folklor, kulgi, askiya, latifa, komizm, nazariya, genezis, estetika.*

Холбутаев Гайратбек Ойбекович (Доцент Андижанского филиала Кокандского университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам; gayratbek19912705@gmail.com; ORCID ID: 0000-0001-5925-8071)

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОМИЧЕСКИХ ЖАНРОВ ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. *В статье анализируется история изучения комических жанров фольклора, в частности аскии и латифы, а также их теоретические основы. В исследовании сравниваются определения феномена смеха в мировой и узбекской фольклористике, рассматриваются концепции таких ученых, как В.Я.Пропп и М.М.Бахтин. Освещается специфика жанра аския и его роль в удовлетворении эстетических потребностей народа. В завершении статьи представлены научные выводы о генезисе и этапах развития комических жанров.*

Ключевые слова: *фольклор, смех, аския, латифа, комизм, теория, генезис, эстетика.*

Kholbutaev Gayratbek (Associate Professor, Andijan Branch of Kokand University Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor; gayratbek19912705@gmail.com; ORCID ID: 0000-0001-5925-8071)

HISTORICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF COMIC FOLKLORE GENRES

Annotation. *This article analyzes the history of the study of comic folklore genres, particularly askiya and latifa, as well as their theoretical foundations. The study compares definitions of laughter in global and Uzbek folklore studies, examining the concepts of scholars such as V. Ya. Propp and M. M. Bakhtin. The specific features of the askiya genre and its role in satisfying the aesthetic needs of the people are highlighted. The article concludes with scientific conclusions on the genesis and stages of development of comic genres.*

Key words: *folklore, laughter, askiya, latifa, comedy, theory, genesis, aesthetics.*

Kirish (Introduction). Jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida xalq og‘zaki ijodi insonlarning ruhiy kechinmalari, turmush tarzi, hayotiy qiyinchiliklari, orzu-umidlari, quvonch va tashvishlari, armon hamda intilishlarini badiiy ifodalashning muhim vositasi bo‘lib kelgan. Xalq o‘z eposida orzu qilgan qahramon, jasur yigit va qizlar obrazini yaratgani kabi, ertaklar, og‘zaki nasriy va lirik asarlarida ham ideal inson timsolini gavdalantirgan. Og‘zaki drama namunalari, ayniqsa kulgi va yumor bilan sug‘orilgan asarlarda ham ushbu an’ana davom ettirilib, dono, zukko, hozirjavob, topqir va mug‘ombir kishilar obrazini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xalqning estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan badiiy intilishlar hayotdagi turli muammo va kamchiliklarni kulgi vositasida tanqid qilish, shu bilan birga, inson ruhiyatini yengillashtirish va kayfiyatini ko‘tarish vazifasini ham bajargan. Mazkur ezgu maqsad og‘zaki adabiyotning rivojlanishi va poetik taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Natijada xalq orasida zukko va hozirjavob kishilar timsolini ifodalovchi latifalar, shingil hazillar hamda askiya kabi kulgili janrlar shakllangan.

Askiyaning paydo bo‘lishi latifaga nisbatan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Buning sababi shundaki, qadimgi ajdodlarimiz, dastlab, yakka ijroga asoslangan og‘zaki ijod namunalarini yaratgan va ijro etgan. Keyinchalik esa ijrochilar sonining ortishi, ijro jarayonining musobaqa shaklida tashkil etilishi natijasida askiyaga xos ijro uslubi shakllangan.

Umuman olganda, yumor va kulgiga asoslangan og‘zaki ijod namunalarining asosiy g‘oyasi tinglovchini kuldirish, uning ruhiy holatini yengillashtirish, turmush mashaqqatlari va hayot tashvishlarini, hech

bo‘lmaganda, ma’lum muddat unutishga yordam berishdan iboratdir. Bunday asarlar insonni ruhiy jihatdan tetiklashtirish, ijtimoiy hayotdagi muammolarga yengilroq nazar bilan qarash imkonini yaratgan.

Og‘zaki ijod tarkibidagi kulgi bilan bog‘liq janrlarni o‘rganish, ularning badiiy-estetik imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish masalasi asosan o‘tgan asr boshlaridan boshlab olimlar e’tiborini torta boshlagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xalq kulgisi faqat folklorshunoslik doirasidagina emas, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylangani kuzatiladi. Yangi davr ilmiy izlanishlarida xalq kulgisining falsafiy, ijtimoiy, psixologik, estetik va madaniy jihatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

Xususan, kulgining ijtimoiy mohiyati A.V.Dmitriyev tadqiqotlarida, psixologik tabiati L.S. Vigotskiy, A.N.Luk, P.V.Simonov, P.M.Yershov ishlarida, estetik ahamiyati esa Yu.B.Borev, A.Z.Vulis, A.F. Losev, M.T.Ryumina, L.N.Stolovich, V.P.Shestakov kabi olimlarning izlanishlarida yoritildi. Kulgining falsafiy qimmati L.V.Karasev, siyosiy mazmuni V.V.Razuvayev, lingvistik xususiyatlari V.Z. Sannikov va X.X.Do‘smatov tomonidan tahlil qilingan.

Shuningdek, badiiy adabiyotda kulgining tutgan o‘rni P.N.Berkov, V.I.Demin, A.Y.Kunilskiy, A.P. Moskovskiy, D.P.Nikolayev, L.A.Spiridonova, Y.V.Stennik, M.N.Chernyavskiy kabi tadqiqotchilar ishlarida o‘rganilgan. Kulgi madaniyat tarixining ajralmas qismi sifatida S.S.Averinsev, D.S.Lixachev, A.M. Panchenko, N.V.Ponirko ilmiy merosida tahlil qilingan. Bundan tashqari, komediyaga N.M.Fed va V.N. Yarxo, satiraga V.I.Adrianova-Perets va L.A.Plotkin, parodiyaga V.L.Novikov, Y.M.Tinyanov, O.M. Freydenberg, latifa janriga esa Y.Y.Kurganov, V.P.Rudnev, Y.Y.Shmeleva, A.D.Shmelev kabi tadqiqotchilar alohida e’tibor qaratganlar [8].

Mazkur tadqiqotlarda kulgining ijtimoiy vazifalari, inson ruhiyatiga ta’siri, aql va tafakkur mahsuli sifatidagi mohiyati, kulgi madaniyatining jamiyat hayotidagi o‘rni asoslab berishga intilish kuzatiladi. Shu jihatdan xalq kulgisi nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy ong, madaniy xotira va xalq tafakkurining muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kulgi muammolari va kulgi madaniyati A.S.Axiyezer, Y.M.Boroday, P.Vayl, A.Genis, A.Y. Gurevich, S.S.Gusev, G.L.Tulchinskiy va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham turli ilmiy yo‘nalishlarda o‘rganilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). 1916-yilda tatar olimi va ma’rifatparvari G. Ibrohimov “Adabiyot darslari” nomli risolasida mazak-mazax janrining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirgan. Olim mazax janrini og‘zaki ijod tarkibidagi alohida adabiy hodisa sifatida izohlab, adabiyot ixlosmandlariga uning mohiyatini qisqacha tushuntirib bergan. U adabiy asarlarni ichki sifatlari, ya’ni, mazmuni va mundarijasiga ko‘ra, yetti turga ajratadi. Ushbu tasnifda baytlar, qo‘shiqlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, chastushkalar va hazillar kabi janrlar qayd etiladi [11].

Tatar folklorshunosligida dastlabki nazariy qarash sifatida ilgari surilgan bu fikrlar oradan qariyb o‘ttiz yil o‘tgach, 1960-yillarda hazilga asoslangan folklor janrlarining tabiati haqida maxsus ilmiy mulohazalar yuritilishiga zamin yaratdi. G.Bashirovning “To‘qson to‘qqiz mazax” nomli to‘plamiga kiritilgan “Mazax qanday paydo bo‘lgan” maqolasida mazaxning janriy belgilari, kelib chiqishi va g‘oyaviy-estetik ahamiyati haqida muhim fikrlar bildirilgan [5]. Keyinchalik, uning “Ming bir mazax” nomli hazillar to‘plami ham nashr etildi [4].

1929-yilda G.Rahim va M.Vasilyev tomonidan yaratilgan “Folklor va xalq adabiyotini to‘plash bo‘yicha qo‘llanma”da hazil birinchi bor folklorning mustaqil janri sifatida baholangan. Ular kulgili xarakterdagi qisqa hikoyalarni latifa deb nomlaganlar [6].

Yoqut folklorini o‘rgangan S.V.Yastremskiyning qayd etishicha, qadimgi yoqutlar dafn marosimlarida ham kulgidan foydalanganlar. Ular kulgini ilohiy tushuncha, ruhlar olami bilan aloqa o‘rnatish vositalaridan biri sifatida talqin qilganlar [20]. S.V.Yastremskiy kulgini ikki ko‘rinishda izohlaydi: birinchisi – kundalik hayotdagi holat va hodisalarga nisbatan yuzaga keladigan yengil kulgi; ikkinchisi – insonni ruhlar olami bilan bog‘lovchi ilohiy kulgi.

XX asr boshlarida tatar olimi Ahmad Sodat Xo‘ja Nasriddin haqidagi mazaxlarni ommalashtirish va ularni ilmiy jihatdan o‘rganish bilan shug‘ullangan [9]. Asr oxirlarida esa F.Xatipov va A.Yaxin tomonidan hazilga asoslangan mazax janri nazariy jihatdan tadqiq etildi. F.Xatipov “Epik janrlar” nomli monografiyasida “Mazax janri xususida” deb nomlangan alohida bob ajratib, mazax janrining o‘ziga xosligi, hayotiy voqealarning yumor asosida talqin qilinishi haqida ilmiy mulohazalar bildirgan. Shuningdek, asarning “Novella. Rasskaz” bobida novella va xalq hazili o‘rtasidagi janrlararo munosabatlar ham tekshirilgan [18].

A.G.Yaxin va M.X.Bakirov tomonidan e’lon qilingan tadqiqotda A.G.Yaxin mazaxlarni alohida folklor janri sifatida tahlil qilgan. Olim mazax janridagi asarlarda bir so‘zning bir necha ma’noda qo‘lla-

nishi, aynan shu semantik ikkiyoqlamalik kulgi hosil qilishda muhim omil ekanini asosli tarzda ko'rsatgan [21].

A.Yaxin "Tatar folklori tizimi" nomli monografiyasida latifa janriga alohida e'tibor qaratgan va shu janrga mansub og'zaki asarlar tahliliga bag'ishlangan bir necha maqolalar e'lon qilgan [22].

Etnografik yo'nalishda askiya o'zbek xalq teatrining ajralmas qismi sifatida A.L.Troitskaya tomonidan tadqiq etilgan [17]. Olima o'zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala materiallari asosida askiyaning xalq orasida qadimdan qiziqchilar tomonidan ijro etilgani, uning ayrim turlari mavjudligi haqida fikr bildirgan. U tutol askiya shaklini yo'qolib ketgan ko'rinish sifatida talqin qilgan. Biroq R.Muhammadiyev A.L. Troitskayaning bu qarashlariga e'tiroz bildirib, tutol unutilmaganini, aksincha, askiyaning murakkab shakllaridan biri ekanini qayd etgan [13].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XX asr ilm-fanida kulgining ijtimoiy mohiyati va hayotdagi o'rni masalasi bo'yicha turli yo'nalishdagi tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, kulgi nazariyasi doirasida ikki asosiy ilmiy an'ana shakllandi. Birinchi an'ana hukmron mafkura ta'sirida Marks va F. Engels ta'limotiga tayangan holda, kulgining ijtimoiy muhitni baholashdagi satirik-tanqidiy kuchini izohlashga qaratilgan edi. Ushbu fundamental an'anaga V.A.Alekseyev, A.S.Bushmin, A.V.Lunacharskiy, D.P. Nikolayev, Y.Y.Elsberg, R.Muhammadiyev kabi olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

M.M.Baxtin, V.Y.Propp, O.M.Freydenberg kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida esa kulgining tub asoslari, uning badiiy tafakkurga ta'siri va madaniy-estetik vazifalari tahlil qilindi [1].

R.Muhammadiyev o'zbek folklorshunosligida komik folklor janrlaridan biri bo'lgan askiyani maxsus tadqiq etishga kirishgan olimlardan biridir. Uning nomzodlik dissertatsiyasi hukmron mafkura ta'sirida yozilgan bo'lsa-da, o'zbek folklorida askiyaning mustaqil janr sifatidagi maqomini asoslashga qaratilgan birinchi tadqiqotlardan biri sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi askiyaning janr tabiati, askiya ijrochilari, uning ichki guruhlari va ijro xususiyatlari haqida nazariy xulosalar bergan.

XX asr o'rtalarida, xususan 1975-yildan boshlab F.Yo'ldoshevaning latifalarga bag'ishlangan tadqiqotlari yuzaga keldi. Olima "Xalq qahramoni Nasriddin afandi obrazini tipiklashtirish muammolari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur ishda o'sha davr mafkuraviy-nazariy muammolaridan biri bo'lgan Nasriddin afandi obrazining tarixiy asosi, uning tipiklashtirilishi va xalq qahramoni sifatida shakllanishi masalalari yoritilgan.

Amerikalik folklorshunos Alan Dundes komik folklorni psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan o'rgangan. U hazil, latifa, parodiya, karikatura kabi komik folklor shakllarini tahlil qilgan. Dundesning fikricha, kulgi va hazil orqali jamiyat o'z-o'zini tanqid qiladi, ijtimoiy me'yorlarni tasdiqlaydi yoki ularni masxara obyektiga aylantiradi [7].

Jahon folklorshunosligida komik folklor janrlarini o'rganishda psixoanalitik metod tarafdorlari ham ko'paydi. Ushbu yo'nalish vakillari A.Dundes va Zigmund Freyd nazariyalariga tayanib ish olib bordilar. Freyd psixoanalitik olim bo'lishiga qaramay, uning hazil va latifaga oid tadqiqotlari folklorshunoslik uchun ham muhim nazariy manba bo'lib xizmat qildi. Uning "Jokes and Their Relation to the Unconscious" asarida kulgi va hazil orqali inson psixikasidagi ijtimoiy hamda shaxsiy tabu, noqulay va yashirin mavzularni aniqlash imkoniyati ko'rsatiladi. Bu yondashuv komik folklor janrlarini tahlil qilishda muhim ilmiy asoslardan biri sifatida qaraladi.

M.M.Baxtin universal xalq kulgi madaniyati nazariyasini ishlab chiqqan. U polifonizm, kulgi madaniyati, xronotop, karnavalizatsiya, menippeya, "ruhiy yuqori" va "tana quyi" kabi tushunchalarni ilmiy muomalaga faol kiritgan hamda ularning badiiy tafakkurdagi ahamiyatini asoslagan [3].

2004-yilda A.A.Sichev kulgi muammosiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Faylasuf olimning ta'kidlashicha, kulgi ijtimoiy hodisa bo'lib, muhim falsafiy mazmunga ega. Kulgi inson kayfiyatini ko'tarish bilangina cheklanmaydi, balki muayyan muammolar va hayotiy qiyinchiliklarning yechimini topishda ham o'ziga xos vazifa bajaradi [16]. Kulgida ijtimoiy muammolarning tanqid ostiga olinishi ularni yengil shaklda anglash va hal etish imkonini beradi.

Taniqli folklorshunos V.Y.Propp 1976-yilda e'lon qilingan "Komizm va kulgi muammolari"ga bag'ishlangan monografiyasida adabiy asardagi komik holatni tahlil qilishda kulgining o'rnini aniqlash zarurligini alohida ta'kidlagan. Olimning fikricha, folklor asarlarida badiiy ifodalangan kulgi komik obrazlarning yaratilishiga, keyinchalik yozma adabiyotda satirik va yumoristik asarlarning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan [15].

V.Y.Proppning qayd etishicha, G'arb nazariyotchilari, xususan nemis olimlari komizmni estetik va noestetik guruhlarga ajratishga intilganlar. Bunday yondashuv kulgini folklor materiallari asosida maxsus

ilmiy tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Propp kulgining ichki tiplarga ajratilishi masalasini ham ilgari suradi va uni quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

1) yoqimli kulgi;
2) qahrli kulgi;
3) jirkanch kulgi;
4) quvnoq kulgi;
5) ritual kulgi;
6) e’tiborsiz kulgi.

Olim kulgini hosil bo‘lish o‘rni va ifoda shakliga ko‘ra, psixologik nuqtai nazardan tasniflaydi hamda ularning farqli tomonlarini ochib beradi. V.Y.Propp tomonidan ajratilgan kulgi turlari folklorning turli janrlarida uchraydi. Uning ta’kidlashicha, tadqiqot uchun kulgining bevosita yoki bilvosita komik muammolar bilan bog‘liq turlarini aniqlash muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, olim masxaraga asoslangan kulgini alohada ahamiyatga ega shakl sifatida ko‘rsatadi [15].

Darhaqiqat, masxaraga asoslangan kulgi komizm bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kulgining estetik shakllaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu kulgi turi og‘zaki adabiyotda komizm, yumor va satiraning yuzaga kelishiga, ularning muayyan adabiy-estetik xarakter kasb etishiga asos bo‘lgan.

Ozarbayjon folklorshunosi Muxtor Kazim o‘g‘lining tadqiqotlarida kulgining mifologik mohiyati alohida ta’kidlanadi. Olimning fikricha, kulgi uch olam – ko‘k, zamin va yer osti olami birligida, o‘rta olamda sodir bo‘ladigan hodisa sifatida talqin qilinadi. Kulgi orqali inson g‘ayb olamiga sayohat qilishi mumkinligi haqidagi tasavvurlar ham mazkur qarashlarda o‘z ifodasini topadi. Tadqiqotchi komizmning tarixiy ildizlari qadimiy e’tiqodiy qarashlarga borib taqalishini, epik talqinda kulgi qahramonning g‘alaba qozonishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilishini ham qayd etadi [14].

Ozarbayjon olimining ushbu qarashlari yoqut folklorshunosligida ilgari surilgan kulgining ilohiy qudrati haqidagi nazariy qarashlar bilan ma’lum darajada uyg‘unlik kasb etadi.

2017-yilda Muxtor Kazim o‘g‘lining “Ozarbayjon folklorida kulgining genezisi va poetikasi” mavzusidagi monografiyasi nashr etilgan [14]. Mazkur monografiyada ozarbayjon folklorida kulgining uchrashi, turli janrlarda kulgi bilan bog‘liq motivlar, kulgining mifologik va magik mohiyati, marosim bilan aloqadorligi, badiiy-estetik vazifalari, kulgili og‘zaki hikoyalar va latifalar poetikasi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Olimning qayd etishicha, ozarbayjonlarda ham o‘zbek xalqida bo‘lgani kabi Navro‘z bayrami kunlarida maydon teatrlari, kulgili suhbatlar va xalq tomoshalari ijro etiladi [14]. U Gasan og‘aga murojaat bilan boshlanadigan dialogik kulgili nutqni kulgili suhbat sifatida tavsiflaydi. To‘g‘ri, ozarbayjon kulgili suhbatlari o‘zbek askiyalaridek tagma’noli so‘zlardan tashkil topmagan. Biroq ularning dialogik nutq shaklida qurilishi askiyaning ayrim xususiyatlarini eslatadi. Shuningdek, kulgili suhbatlarning ijro joyi ham askiyaning ijro muhiti bilan ma’lum darajada mushtaraklikka ega.

Navro‘z bayrami kunlarida sayilgohlarda askiyabozlar, muqallidlar va masxarabozlarning chiqish qilishi o‘zbek xalqida qadimdan mavjud bo‘lgan an’analardan biridir. Taniqli o‘zbek folklorshunosi professor M.Jo‘rayev ham xalqning bayramona kayfiyatini ko‘tarishda folklor san’atining o‘rni beqiyos ekanini alohida qayd etadi [10].

Turkman olimi professor B.A.Karriyevning yozishicha, turkman folklorida “yomak” – masxaralashga asoslangan janr, “shorta soz” – latifa mazmunidagi anekdot kabi janrlar mavjud. Ushbu janrlar xalqning kulgi va yumorga asoslangan dunyoqarashini badiiy-estetik shaklda ifodalashi bilan muhim ahamiyatga ega [12]. Biroq B.A.Karriyev tadqiqotida “yomak”ning ijro muhiti va uslubi haqida batafsil ma’lumot berilmagani sababli uni o‘zbek folkloridagi qaysi komik janrga yaqinlashtirish mumkinligini aniq belgilash qiyin. Shunga qaramay, janrning “draznilka” sifatida izohlanishi uni bolalar folkloridagi chandishlarga yaqin bo‘lishi mumkin degan ehtimolni yuzaga keltiradi.

O‘zbek folklorida komik janrdagi matnlarning shakllanishida masxaraga asoslangan kulgi muhim o‘rin tutadi. Ushbu kulgi turi qahramonlarning ma’lum narsa yoki hodisalarga qiyoslanishi orqali komik manzara yaratadi va kulgining yuzaga kelishiga imkon beradi. Irma Estrupning ta’kidlashicha, qadimgi folklor matnlarida qo‘pol jargon so‘zlarning qo‘llanishi ularning qadimiyligini ko‘rsatuvchi belgilaridan biridir [19]. Demak, o‘zbek askiyasida tagma’noda qo‘llanuvchi so‘zlar, shuningdek, yashirin erotik mazmunning mavjudligi ushbu janrning qadimiy ildizlarga ega ekanidan dalolat beradi.

Irma Estrupning nazariy qarashlariga tayanilganda, askiya janrining tarixiy asoslari juda qadimgi davrlarga borib taqalishini taxmin qilish mumkin. Biroq askiya janrining genezisini aniqlash alohida fundamental tadqiqotni talab etadi. Shu sababli ushbu tadqiqot doirasida askiyaning tarixiy asoslarini batafsil yoritish asosiy maqsad sifatida belgilanmagan.

V.Y.Propp nazariyasiga tayanilganda, kulgiga asoslangan har qanday folklor janrining ildizlari qadimgi mifologik tasavvurlarga, aniqrog'i, ajdodlarimizning kulgi magiyasiga borib taqaladi. Propp kulgini ilohiy ne'mat sifatida baholab, "Xudo dunyoni kulish orqali yaratgan yoki Xudoning kulgisi dunyoni yaratgan", degan qarashni ilgari suradi [15].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'zbek va rus komik folklor janrlarining o'rganilish tarixi XX asr boshlaridan shakllana boshlagan. XX asrning dastlabki yillarida xalq ijodiyoti namunalarini to'plash va ommalashtirishga bo'lgan intilishlar komik folklor janrlarini poetik hodisa sifatida filologik jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi.

Natijada Rossiyada XX asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab komik folklor janrlariga oid asosiy tadqiqotlar e'lon qilina boshlagan bo'lsa, O'zbekistonda 1930-yillardan e'tiboran komik folklor namunalarini to'plash va o'rganishga alohida e'tibor berildi.

O'zbek folklorshunosligida komik folklor janrlariga bag'ishlangan monografik tadqiqotlarning boshlanishi 1961-yilda R.Muhammadiyevning nomzodlik dissertatsiyasi bilan bog'liq. Keyinchalik, XX asrning 70-yillarida F.Yo'ldosheva tomonidan latifalar poetikasiga oid tadqiqotlar amalga oshirildi. XXI asr boshlaridan esa askiya poetikasi, latifalar tipologiyasi, lof janrining folklor tizimidagi o'rni kabi masalalar yangi avlod tadqiqotchilari tomonidan yangicha nazariy yondashuvlar asosida o'rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Алексеев ВЛ. Оружием политической сатиры. Москва, 1979; Буишин А.С. М.Е.Салтыков-Щедрин. Ленинград, 1970; Луначарский А.В. О смехе. Советский фельетон. Москва, 1959, с. 439 – 442. Николаев Д.П. Смех – оружие сатиры. Москва, 1962; Эльсберг Я.Е. Вопросы теории сатиры. Москва, 1957; Мухаммадиев Р. Аския (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри). Филол.фан.номз. дисс., Тошкент, 1961; Бахтин Л.А. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. Москва, 1990; Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. Москва, 1999; Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. Москва, 1997.

(2). Ахиезер А.С. Россия: критика исторического опыта. В 3 т., т.3. Москва, 1991; Бородай Ю.М. Эротика-смерть-табу: трагедия человеческого сознания. Москва, 1996; Вайль П., Генис А. 60-е: мир советского человека. Москва, 2001; Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры. Москва., 1981; Гусев С.С., Тульчинский Г.Л. Проблема понимания в философии. Москва, 1985; Терц А. Путешествие на Черную речку. Москва, 1999.

(3). Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Походаев В.С. Москва, "Искусство", 1986, с. 258.

(4). Бәширов Г. Мең дә бер мәзәк. Казан, 1963. 380-бет

(5). Бәширов Г. Туксан тугыз мәзәк. Казан, 1960, с. 74.

(6). Васильев М., Рахим Г. Руководство по собиранию фольклора и народной литературы. Казань.1929, 68 с.

(7). Дандес Алан. Фольклор: семиотика или психоанализ. Сб. ст. Москва, "Вост. лит", 2003, 278 с.

(8). Дмитриев А.В. Социология юмора. Москва, 1996; Выготский Л.С. Психология искусства. СПб., 2000; Лук А.Н. Юмор, остроумие, творчество. Москва, 1977; Симонов П.В., Ершов П.М. Темперамент, характер, личность. Москва, 1984; Борее Ю.Б. Комическое. Москва, 1970; Вулис А.З. Метаморфозы комического. Москва, 1976; Лосев Л.Ф., Шестаков В.П. История эстетических категорий. Москва, 1965; Рюмина М.Л. Тайна смеха, или Эстетика комического. Москва, 1998; Рюмина М.Л. Эстетика смеха. Смех как виртуальная реальность. Москва, 2003; Столович Л.Н. Философия. Эстетика. Смех. СПб., Тарту, 1999; Карасев Л.В. Философия смеха. Москва, 1996; Разуваев В.В. Политический смех в современной России. Москва, 2002; Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. Москва, 2002; Дўсматов ХХ. Аския матнининг лингвостилистикаси. Филол.фан бўй.фалсафа.докт. (PhD) дисс. автореф., Фарғона, 2018; Берков П.Н. История русской комедии XVIII в. Л., 1977; Демин В.П. Многоцветие смеха: Комическое в мордовской литературе. Саранск, 1998; Кунильский А.Е. Смех в мире Достоевского. Петрозаводск, 1994; Московский А.П. Сатира и юмор в русской литературе. Иркутск, 1993; Николаев Д.П. Сатира Гоголя. Москва, 1984; Спиридонова Л. Бессмертие смеха. Москва, 1999; Стенник Ю.В. Русская сатира XVIII века. Л., 1985; Чернявский М.Н. Комедия Аристофана и античные теории смеха. Аристофан. Москва, 1956, с. 81–108; Аверинцев С.С. Поэтика ранневизантийской литературы. Москва, 1977; Лихачев Д.С., Панченко А.М., Понырко Н.В. Смех в Древней Руси. Л., 1984; Смех: истоки и функции. СПб., 2002; Федь Н.М. Искусство комедии. Москва, 1978.

(9). Әхмәт Солдат. Хуҗа Насретдин мәзәкләре. "Совет әдәбияты" 1943, № 8, 77–79-бетлар.

(10). Жўраев М. Наврўз байрами. Тошкент, "Фан". 2009, 107-бет.

(11). Ибраһимов Г. Әдәбият дәресләре. Казан, 1916, 64-бет.

(12). Каррыев Б.А. Эпосы, легенды и сказания. Туркменский юмор// http://gundogar-news.com/index.php

(13). Мухаммадиев Р. (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри). Филол.фан.номз. дисс., Тошкент, 1961, 7-бет.

(14). Мухтар Казымоглы. Генезис и поэтика смеха в азербайджанском фольклоре. Баку, "Элм ве техсил", 2017, 360 с.

(15). Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – Москва: Искусство, 1976.

(16). Сычев А.А. Смех как социокультурный феномен. Автореф.докт философ. наук, Саранск, 2004.
(17). Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане. Восточный сборник. Л., 1990, вып. 4, с. 144–151.
(18). Хатипов Ф. Эпик жанрлар. Казан, Татар. кит. нәшр., 1973, 49-бет.
(19). Эструп И. Исследование о «1001 ночи», ее составе, возникновении и развитии, пер. с дат., – Москва, 1904, с. 26.
(20). Ястремский С.В. Образцы народной литературы якутов. Якутской АССР, т. 7, Л., 1929, с. 34.
(21). Яхин А.Г., Бакиров М.Х. Фольклор жанрларын система итеп тикшерү тәжрибәсе (Мәзәкләр, бәетләр), Казан, 1979.
(22). Яхин А.Г. Система татарского фольклора. Казань, 1984, 120 с.

Muxammedova Nilufar (PhD, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsenti)

ZAMONAVIY AQSH ADABIYOTIDA MO‘JIZAVIY REALIZM: INDIVIDUAL YONDASHUV

Annotatsiya. *Ko‘p millatli Amerika adabiyotida mo‘jizaviy realizm turli yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Bunday yondashuvlarda etnik guruhlarning tarixi va madaniyati ifodalanmoqda. Shu bilan birga, Amerika yozuvchilari mo‘jizaviy realizmga individual tarzda yondashgan holda uning o‘zgacha ifodalarini va shakllarini yaratmoqdalar. Mazkur maqola zamonaviy AQSH adabiyotida shakllangan mo‘jizaviy realizm elementlarini o‘ziga xos individual yondashuvda asarlarida aks ettira olgan adib Jonatan Kerol ijodi haqida so‘z yuritadi.*

Kalit so‘zlar: *realizm, mo‘jiza, shakl, roman, hayot, obraz, sujet.*

Мухаммедова Нилуфар (PhD, доцент, Узбекский государственный университет мировых языков)

МАГИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ США: ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД

Аннотация. *В многокультурной американской литературе магический реализм развивается на основе различных подходов. В этих подходах находят выражение история и культура этнических групп. Вместе с тем американские писатели, индивидуально подходя к магическому реализму, создают его своеобразные выражения и формы. В данной статье рассматривается творчество писателя Джонатана Кэрролла, который сумел отразить в своих произведениях элементы магического реализма своим особенным индивидуальным подходом.*

Ключевые слова*: реализм, магический, форма, роман, образ, сюжет*

Mukhammedova Nilufar (PhD, Associate professor Uzbekistan State World Languages University)

MAGICAL REALISM IN US CONTEMPORARY LITERATURE: INDIVIDUAL APPROACH

Annotation. *In multicultural American literature, magical realism is demonstrating various individual approaches. Within these approaches, the history and culture of different ethnic groups are being expressed. At the same time, American writers, by approaching magical realism in an individual way, are creating its unique expressions and forms. This article analyzes selected novels of Jonathan Carroll, who has been able to show elements of magical realism using a distinctive individual approach.*

Key words*: realism, magical, form, novel, life, plot.*

Kirish. Zamonaviy AQSH adabiyoti turli millatga mansub yozuvchilarning asarlari bilan boyib bormoqda. Bu esa adabiyotda har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan afsonalari, rivoyatlari va ertaklarida aks etgan millylikni aks ettirmoqda. Jahon adabiyotida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan mo‘jizaviy realizmga xos bo‘lgan badiiy asarlarda yozuvchilarning millat tarixiga, o‘tmishiga murojaat qilish va ularni qayta aks ettirish uchramoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bunday yondashuvni biz afro-amerika, Amerika hindu adiblari asarlarida keng uchramoqda. Shu bilan birga, mo‘jizaviy realizmning yangi xususiytalari o‘zgacha tarzda ham aks etmoqda. Har bir yozuvchining estetik qarashlari va individual tajribasiga asoslangan holda asarga noyob shakl va mazmun baxsh etmoqda. Afroamerika va amerika hindu ijodkorlaridan farqli ravishda, Jonatan Kerol (1949-yil tug‘ilgan), Lusius Shepard (1943–2014) va Sara Eddison Allen ijodida mo‘jizaviy realizmning turfa qirralari ko‘zga tashlanadi. Jonatan Kerol asarlarida real hayot bilan fantastik haqiqat o‘rtasidagi nozik chegara psixologik va his-tuyg‘u orqali beriladi. Lusius Shepard esa mo‘jizaviylikni ekzotik joylar, mahalliy afsonalar va kosmik haqiqatlar bilan uyg‘unlashtirib, ko‘proq falsafiy va metafizik ohangga urg‘u beradi. Eddison Allen esa kundalik hayotni o‘ziga xos lirik sehr bilan boyitadi, unda mo‘jiza ayol tajribasi, oilaviy xotiralar va ijtimoiy muhit bilan bog‘lanadi. Ushbu yozuvchilar asarlarida mo‘jizaviy realizmning har xil individual yondashuvlari ko‘zga tashlanadi, bu esa badiiy uslubning moslashuvchanligini va ko‘p qirraliligini namoyon etadi.